

“Maksam-Chirchiq” Ajda mashqlar o'tkazildi

// 01.05.2015

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/maksam-chirchiq-azhda-mashqlar-utkazildi>

2015 yil 29 aprelda “Maksam - Chirchiq” Ajda korxonaning fuqaro muhofazasi tuzilmalari Chirchiq shahrining Favqulodda vaziyatlar davlat quyi tizimining xizmatlari bilan birgalashib hamkorlikda ishlash ko'nikmalarni takomillashtirish bo'yicha ko'rgazmali maxsus-taktik mashqi o'tkazildi.

Mashq davomida texnogen xususiyatga ega shartli favqulodda vaziyatni bartaraf etish bo'yicha vazifalar bajarildi.

Ko'rgazmali maxsus - taktik mashqiga 438 nafar kishi hamda 34-ta maxsus va muhandislik texnika vositalari jalb etildi.